



FASOL NAVLARINING HOSIL STRUKTURASI

JANGIROVA OZODA ROZOKOVNA

Fasol qimmatli oziq-ovqat ekini bo'lib, dukkakli-don ekinlar orasida ekin maydoni bo'yicha u jahon qishloq xo'jaligida soyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Fasol doni tarkibida 33% gacha protein, 50-60 % kraxmal, 5-8 % kletchatka mavjud. Singdiruvchanlik nuqtai nazaridan fasol oqsili go'sht va baliq oqsillarining hazm bo'lishiga yaqinlashadi (86-90 %). Yashil holatda fasol ko'p miqdorda vitaminlarni o'z ichiga oladi va ajoyib ta'mga ega. Fasol konserva va kolbasa ishlab chiqarishda, non pishirishda va xalq tabobatida keng qo'llaniladi [1].

Odamlar, hayvonlar va parrandalar ratsionida ishlatiladigan eng muhim tarkibiy qismlar, shuningdek tibbiy va texnik maqsadlar uchun xomashyo sifatida o'simlik oqsili va yog'ga bo'lgan talabning ortib borishi dukkakli-don ekinlarini yetishtirish texnologiyasini maqbullashtirishga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi, bu resurslardan tejamkorlik bilan foydalangan holda dukkakli-don ekinlaridan barqaror hosil olish mumkin [4].

O'simliklarni namlik bilan maqbul darajada ta'minlash qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishning eng muhim shartlaridan biridir [2].

Ko'rib chiqilayotgan barcha ekinlar uchun namlik darajasi maqbullashtirilganligi sababli o'g'itlardan foydalanish natijasida hosildorlikning oshish tendensiyasi kuzatilgan, bu namlikning turli darajalarida o'g'itlardan foydalanish samaradorligini taqqoslash bilan tasdiqlangan [3].

Ma'lumki, o'simlik hosildorligi unda to'plangan hosil elementlarining miqdoriga bog'liq.

Fasolda ham don hosildorligi o'simlikda shakillangan hosil elementlari, ya'ni dukkaklar soni va undagi donning salmog'iga bog'liqdir. Fasol takroriy ekin sifatida ekilganda undan yuqori va sifatli don olish uchun uni ekish me'rlarini, usullarini va ma'danli o'g'itlari me'yorlari to'g'ri belgilash kerak. Shu sababli fasol dukkaklarining



shakillanishi, birinchi dukkaklarinig yerdan balandligi, shoxlarning soni, dukkaklarning uzunligi, bitta dukkakda donlar soni, 1000 dona don massasi o'rganildi.

Fasol navlarining hosil strukturasi o'ld ma'lumotlar 1-jadvallarda keltirilgan.

Fasol hosilining tahlili (bitta o'simlikdagi shoxlar, dukkaklar soni, o'stki dukkakning yerdan balandligi (ODEB), dukkak uzunligi, bitta dukkakdagi don soni, bitta ildizdagi tunganaklar soni, mingta don massasi) makro va mikroo'g'itlar ta'sirida sezilarli darajada o'zgardi.

Ostki dukkaklarning yerdan balandligi (ODEB) hosilni konbayin yordamida nobud qilmasdan yeg'ishtirib olish mumkinligini ifodalaydigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

1-jadval

Fasol navlarining hosil strukturasi

t/ r	Navlar	Makro- va mikroo'g'itlar	OD EB, sm	Bir tupdag i dukkaklar soni, dona	Bitta dukkakdagi don soni, dona	Bir tupdagi donlar soni, dona	Bir tupdagi don massasi, g	1000 dona don massasi
1	Rovot	Nazorat-o'g'itsiz	7,4	10,2	5,7	58,1	25,6	440,1
2		N30P60K60 – fon	8,2	14,6	5,9	86,1	39,7	460,3
3		Fon+Nutri Power	8,4	15,4	6,1	93,9	43,7	465,5
4		Fon+Sea Fun	9,1	16,2	6,2	100,4	48,1	478,7



5	Махсудор	Nazorat-o'g'itsiz	7,8	11,4	5,9	67,3	36,5	542,4
6		N30P60K60 – fon	8,7	13,5	6	81,0	50,2	619,9
7		Fon+Nutri Power	9,1	14,2	6,3	89,5	57,3	640,1
8		Fon+Sea Fun	10,2	15,5	6,6	102,3	66,0	645,2

Bu ko'rsatkich variantlarga bog'liq holda 7,4 sm dan 10,2 sm gacha o'zgardi. Bir tup o'simlikdagi dukkuklar soni 10,2-16,2 donani tashkil qildi, qulay oziqlanish rejimida dukkaklar soni ortishi ko'zatildi. Makroo'g'itlar fonida Sea Fun qo'llanilganda hamr ikkala navda ham ko'p bo'lishi ta'minlandi, masalan, Ravot navida dukkaklar soni 16,2 donani, Mahsuldor navida esa 15,5 donani tashkil qildi.

Dukkakli ekinlarning hosildorligi don soni va donning massasi bilan ham bog'liqlir. Lekin donlarning ko'p bo'lishi doim ham yuqori hosil yetishtirishga asos bo'lmaydi, chunki donlarning soni bilan birga salmog'i ham talab darajasida bo'lsagina, yetishtirilgan hosildan mo'l va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli yetishtirilgan fasolning dukkaklaridagi donlar soni va don vaznini ekish muddatlariga va me'yorlariga bog'liq darajasini o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi [5].

Tadqiqotlar natijasiga qaraganda, dukkaklardagi 1000 dona don massasi Ravot navida variantlar bo'yicha 440,1-478,5 g gacha, Mahsuldor navida esa 542,4-645,2 g gacha o'zgarib bordi. Olib borilgan tajribamizda mineral o'g'itlar fasol navlarining 1000 dona don massasiga tasiri aniqlandi. Mineral o'g'itlar (makro va mikroo'g'itlar) qo'llanilgan variantlarda 1000 dona don massasi nazorat-o'g'itsiz variantdagiga nisbatan ko'p bo'lishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, fasol navlari hosil strukturasi nav xususiyati bo'lishi bilan birga yetishtirish texnologiyasi, jumladan makro va mikroo'g'itlar ta'sirida keskin



o'zgarishga uchraydi. Mineral o'g'itlar ta'sirida bir tupdagi dukkaklar soni ko'payishi bilan birga, bitta dukkakdkagi donlar soni va massasi ham ortadi. Shunga ko'ra, 1000 dona don massasi ham ko'p bo'ladi. Makroo'g'itlar bilan birga Sea Fun qo'llanilganda natijadorlik yanada yuqori bo'ladi. Ravot naviga nisbatan Mahsuldor navida ko'rsatkichlar yanada yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аверчев О.В., Татаров О.С. Агроэкологічне обґрунтування вирощування квасолі овочевої на краплинному зрошенні в умовах Півдня України // Вісник Уманського національного університету садівництва. 2017. -№1, -С. 33-37.
2. Ovchinnikov A.S. 2011. 13-17-b., Kurbanov S.A. 2013. 8-10-b.
3. Kuligin V.A. 2015. 1-15-b.
4. Danilenko Yu.P. 2007. 38-b., Chamurliyev O.G. 2010. 38-39-b
5. Yormatova D., 2000